

Og'zaki Tarjimaning Nazariy Asoslari

Kamolxonova Mohiraxon Tal'atxo'ja qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrası

“Sinxron tarjima” yo'nalishi 1-bosqich magistranti

E-mail: kamolxonova61@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarjima sohasining qismi bo'gan og'zaki tarjima, kelib chiqishi, rivoj topishi, ahamiyatligi yoritiladi. Shuningdek, og'zaki tarjimonlarning boshqa tarjima sohasi vakillaridan farqli tomonlari va ularning vazifalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar. Og'zaki tarjima, so'zlab berish, tarjima sifati, ma'lumot illuziyasi, qog'oz lug'atlar, atamalar, notiqlik.

Abstract. This article defines the origin, upgrowth, importance of oral translation as a part of translation field. Also, distinguishing features and tasks of oral translators from other representatives of translation.

Key words. Oral translation, narrating, translation quality, information illusion, paper dictionaries, terms, eloquence.


Аннотация. В данной статье описывается зарождение, развитие, значение устного перевода, который является частью переводческой отрасли. Также рассмотрены отличия переводчиков от представителей других сфер перевода и их задачи.

Ключевые слова. Устный перевод, повествование, качество перевода, информационная иллюзия, бумажные словари, термины, красноречие.

Og'zaki tarjima haqida so'z yuritishdan avval tarjimaning asli nima ekanligi haqida to'liq ma'lumot olgan maqsadga muvofiq. Tarjima so'ziga chuqurroq nazar soladigan bo'lsak, unga ikki xil tomondan ta'rif berish mumkin. Latyshev tarjimini bir tomondan tarjimon yaratgan matn desa ikkinchi tomondan tarjimonning matn ustidagi faoliyati deb ko'rsatadi.¹ Tarjima jarayonida tarjimon ikkala faoliyat turi haqida aniq tushunchaga ega bo'lishi lozim, ya'ni tarjimon tomonidan yaratilayotgan matn va yaratilish jarayoni haqida. Tarjimaga ehtiyoj sezilishidan asl maqsad ham aslida insonlarning turli millat va elat vakillari ekanliklari va suhbat jarayoni uchun muhimligidir. Bunday insonlarni til bilan bir- birlaridan ajralib turishlari fan tilida lingua franca ” deb yuritiladi.² Tarjimaga bo'lgan ehtiyoj faqatgina lingua franca tufayli emas balki lingvoetnik holat, ya'ni insonlarning madaniyati, boshqa mamlakat haqida yetarlicha ma'lumotga ega emaslik kabi holatlar bo'lishi mumkin. Har bir soha kabi tarjimonlik ham professional soha turiga kiradi. Tarjima jamiyatda ma'lum bir vazifalarni bajaradi. Jamiyatda tutgan o'rnining qanchalik muhim ahamiyatga egaligi uning kelib chiqishi

¹ Технология перевода: Учеб. пособие для студ. лингв. вузов и фак. / Лев Константинович Латышев. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Издательский центр «Академия», 2005. — 320 с.

² Jenifer Jenkins English as a Lingua Franca: interpretations and attitudes // World Englishes, Vol. 28, No. 2, pp. 200–207, 2009. С- 23



va xarakter xususiyatiga bog'liq bo'ladi. Tarjimaning jamiyatda tutgan o'rnini aniqlash uchun uni beixtiyor boshqa til bilan bog'liq bo'lgan sohalar bilan solishtirib ko'rish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

So'zlab berish- tarjimadan farqli jihati keltirilgan matnning mazmunini istalgan tarzda ifodalash mumkinligidir. Unda so'zlarni tushirib qoldirish xatto ba'zi bir tushunilishi qiyin bo'lgan detallarni qoldirib ketish imkoni mavjud ammo tarjimada so'zlar o'zgarsa ham ma'no o'zgarmasligi darkor.

Keyingi tarjima bilan bevosita taqqoslash mumkin bo'lgan tur **referirlashtirish**dir. Bunda keltirilgan matnni istalgancha hajmini qisqartirish mumkin. Asosiysi, matn bilan tanishib chiqayotgan shaxslarga yangilik haqida ma'lumot berish, uni yuzaga kelganligini xabarlash va yetkazish hisoblanadi. Misol uchun, matn bilan tanishish orqali tarjimani buyurtma qilinishga yaroqlikmi yoki yo'qligi aniqlanadi.

Yuqorida keltirib o'tilgan ikki turdan shuni xulosa qilish mumkinki, ulardan hech biri asliy matnni to'liq o'rnini egallay olmaydi. Biroq, tarjima esa matnning boshqa tildagi aniq nusxasi hisoblanadi. Og'zaki tarjima ham xuddi shunday bo'lib, ikki turli til egalarining o'rtasida bilinmas ko'priki bo'lishi va ikkala shaxs ham xuddi bir tilda suhbat qilayotgandek o'zlarini his qilishlari kerakdir. Tarjimon haqida so'z borar ekan, tarjimashunoslar ham tarjima uchun muhim shaxslar hisoblanishlarini ta'kidlab o'tish lozim. Tarjimonlardan farqli ravishda tarjimashunos olimlarning vazifasi tarjimani turli qatlamlaridan o'rganish, tarjimaning asl maqsadini aniqlash va ma'lum bir qolipga solishdan iborat.


Og'zaki tarjimon maksimal darajada muloqot jarayonida ko'zga tashlanmasligi, ya'ni uning mavjudligi deyarli bilinmasligi zarur, ya'ni muloqot olib boruvchilar o'rtada uchunchi shaxs borligini sezmasliklari va bu holatga esa tarjimon yuqori darajada professionallikka ega bo'lgan holda erishishi mumkinligi ta'kidlanadi. Tarjimon Xrushevaning ta'kidlashicha, og'zaki tarjimon to'g'ridan - to'g'ri ma'lumotning illuziyasini yarata olishi zarur.³ Tarjima qilinayotgan matn faqatgina ma'no- mazmunini emas, balki matnning formati, tuzilishi va muallifning nutqidagi asosiy xususiyatlarni ochib berishi lozim.

Tarjima shunday amalga oshishi kerakki, agar u matn bo'lsa, xuddi asliy matndek o'qilishi va muallifning so'zi bo'lib tarqala olishi kerak.⁴ Tarjima matni asliyatdagi kabi chiqqanini bilish uchun tarjima qilingan til vakiliga o'qitirib ko'rish va uning fikriga qarab ish tutish nazarda tutiladi.

Aslini olib qaraganda og'zaki va yozma tarjima orasida sezilarli tafovut mavjud emas. Shunchaki, yozma matn tarjimasi bilan ish olib boradigan tarjimon uchun ajratilgan vaqt og'zaki tarjimonga nisbatan ancha ko'proq bo'ladi. Bunga asosiy sabab yozma matnlar tarjimoni bir qancha qog'oz lug'atlar, terminlar atamaları kabi katta tomli materiallardan foydalanadilar. Og'zaki tarjimonning zaxirasida esa faqatgina bir necha soniyalar mavjud, xolos. Tarjimonlar konferensiyasining xalqaro assotsatsiyasining hisobotiga ko'ra, og'zaki tarjima stressga to'la bo'lgan tarjima turi hisoblandi. Sababi tarjimon bir vaqtning o'zida bir qancha vazifalarni bajarishiga to'g'ri keladi. Masalan, sinxron tarjimon so'zlovchining nutq tezligiga soniyalar davomida moslashib olishi talab qilinadi. Ba'zi bir muammolar ham

³ Н. Хрушева Сухадрева журнале Огонек.- 1989. N10.

⁴ Найда Ю. А. К науке переводить/ Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике/ Под ред. В. Н. Комиссарова.- М., 1978.- С. 124-125.



tarjimonlarni chetlab o'tmaydi. Yetarli pog'onaviy bilimning yetishmasligi, chalg'ituvchi aksent, mavzuning o'zgarishiga tayyor turish kabi muammoviy holatlar talaygina. 30% dan ko'p tarjimonlar og'zaki tarjimoni stressli kasb deb hisoblashadi.⁵ Ko'pchilikning hayolida tarjimon deganda ma'lum bir yerda muqim o'tirgan holda tarjima bilan shug'ullanadigan shaxs bo'lsa og'zaki tarjimon unday emas. U nafaqat tarjimoni og'zaki ravishda bajaradi balki uning tarjimasi mukammal va bexato bo'lishi uchun so'zlovchi bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqani saqlashi, ya'ni uning tana harakatlarini ham ko'rib turishi lozim. Ana shundagina tarjimon amalga oshirayotgan tarjima aniq chiqadi. Shuningdek, og'zaki tarjima bilan shug'ullanib boruvchi tarjimon va bo'lajak tarjimonlar diqqatni jamlash ko'nikmasini shakllantirib borishlari lozim. Sababi tarjima jarayonida ular bir qancha vazifalarni bir vaqtning o'zida bajarishlari kerak bo'ladi. Har bir ikki va undan ortiq tilda mukammal so'zlovchi inson tarjimon bo'lib keta olmaydi. Tarjimon uchun bir necha tillarni bilish bu tabiiy va zaruriy holat, albatta biroq bu maqomga erishish uchun mutaxassislikning o'zi bilan ham tanish bo'lish kerak. Talab qilinadigan asosiy ko'nikmalar quyidagilardir:

- bir necha vazifani bir vaqtning o'zida bajara olish;
- notiqlik mahorati;
- chidamlilik;
- moslashuvchanlik;

Shu ko'nikmalarga ega bo'lgandagina omadli tarjimonga aylanib o'z vazifasini mukammal amalga oshirish mumkin.


Og'zaki tarjimon darhol tarjimoni boshlab ketishi bu sohaning oson ekanligini ko'rsatmaydi balki u belgilangan muddatgacha bir necha haftalar davomida tinimsiz izlanishlar olib boradi. Yig'ilish davomida boradigan suhbat mavzusiga taxminiy tayyorgarlik ko'radi. Tarjimashunos olimi S. Bassnett- Makgayr tarjimon eng avvalo o'quvchi va u matnni talqin etishi kerakligini eslatib o'tadi.⁶ Tarjimoning vazifasi ikki suhbatdosh o'rtasida bilinmas ko'prik vazifasini bajarish. Hech qanday holatda o'zidan fikr qo'shmasligi so'zlovchi uchun biror bir fikr bildirmasligi lozim.

Eng birinchi tarjimonlar bu sohaga professional tarjimon sifatida kirib kelishmagan. Ular avvaliga shunchaki til va mintaqani mukammal bilgan shaxslar bo'lishgan.⁷ Millatlar frazeologiyasi tarjimon e'tibor qaratishi lozim bo'lgan tushuncha hisoblanadi. Har bir mintaqaga o'z tilidan tashqari, shaxsiy va boshqalarnikiga o'xshamagan an'ana, udum, qadriyatlarga ega bo'lib ularning barchasi uchun berilgan ta'rifni lug'atlardan qidirib topib bo'lmaydi. Mana shunday vaziyatda og'zaki tarjimon ko'proq ter to'kishi va izlanishiga ehtiyoj tug'iladi. Bu qanday amalga oshiriladi. Tarjimon aslyat matni yaratilgan mamlakatga ijodiy safar uyushtiradi va odamlar bilan suhbatda bo'ladi. Mana shundagina u o'z oldidagi to'siqlarni yengib o'tadi. Og'zaki tarjima yaxshi amalga oshirilmasa nafaqat tarjimon balki butun boshli tadbir zavolga yuz tutishi bilan yakunlanadi. Ikki xil til egalari salohiyatsiz tarjimon tufayli bir - birini tushuna olmasligi va tadbirdan kutilgan ijobiy natijaga erishilmy qolishi mumkin.

⁵ Oral translation English-Arabic Dr/ Grine Zehour 2018-2019

⁶ Tarjima nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma /I.G 'ofurov, O ,M o 'minov, N.Qambarov. - Toshkent: Tafakkur-Bo'stoni, 2012. 216 b.

⁷ <https://openaccessjournals.eu/index.php/ijiaet/article/view/813/779>



Bunday holat faqatgina tarjimonning aybi bilan bo'lavermaydi. Quyidagi sabablar bo'lgandagina yuzaga keladi:

- yetarlicha tayyorgarlikka ega bo'lmaslik;
- zaif artikulasiya;
- ishtirokchilarni nazorat qilmaslik;
- tarjimonga nisbatan xurmatsizlik ko'rsatish;

Yuqoridagi holatlar yuzaga kelmasligi uchun so'zlovchining o'zi eng avvalo so'zlayotgan nutqiga e'tiborli bo'lishi va tezlikni ham unutmasligi lozim. Agar tarjimon bitta so'zlovchilar esa bir nechta bo'lsa, ular bir vaqtda nutq so'zlamasliklari talab qilinadi chunki tarjimon barchaning nutqini birdaniga tarjima qila olmaydi. Ishtirokchilarda chalkashlik yuzaga kelmasligi uchun nutq so'zlovchi gaplarini qisqa qilishi, jargon, idioma, bir millat hududidagina ishlatiladigan xususiy hazillardan foydalanmasligi zarur.

Umuman olganda, og'zaki tarjima juda qiziq shu bilan birga mas'uliyatli soha. Hozirgi rivojlanib, o'zgarib borayotgan dunyoda tarjimaga bo'lgan ehtiyoj juda katta. Og'zaki tarjimon esa mana shu o'zgarishlarni millatlararo bexato va aniqlikda yetkazadigan shaxsdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Технология перевода: Учеб. пособие для студ. лингв. вузов и фак. / Лев Константинович Латышев. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Издательский центр «Академия», 2005. — 320 с.
2. Н. Хрушева Сухадрева журнале Огонек.- 1989. N10.
3. Найда Ю. А. К науке переводить/ Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике/ Под ред. В. Н. Комиссарова.- М., 1978.- С. 124-125.
4. Oral translation English-Arabic Dr/ Grine Zehour 2018-2019
5. Tarjima nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma /I.G 'ofurov, O ,M o'aminov, N.Qambarov. -Toshkent: Tafakkur-Bo'stoni, 2012. 216 b.
6. <https://openaccessjournals.eu/index.php/ijiaet/article/view/813/779>
7. ¹ <https://openaccessjournals.eu/index.php/ijiaet/article/view/813/779>